

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI



KAFEDRA: O'ZBEK VA CHET TILLARI

FAN: O'ZBEK TILI SEMESTR: II KURS:1-BOSQICH

TAYYORLADILAR: KATTA O'QITUVCHI: AYOXODJAYEVA M.S.

DOTSENT: BOLTAYEVA I.T.

18-MAVZU:

**“Mustaqillik maydonida”
mavzusida matn rejasini tuzish.
Taqriz**

**(Составление плана текста
«На площади Мустакиллик». Рецензия)**



▼ Запомните! Eslab qoling!

План – это самая краткая запись содержания текста. Он позволяет проследить за ходом мыслей автора и их последовательностью.

При составлении плана текст делится на смысловые части, производится наименование каждой части. План может быть простым и развернутым.

▼ Запомните! Eslab qoling!

Рецензия — жанр научной литературы, в которой автор анализирует содержание статьи, доклада, учебника и т.д. В рецензии дается библиографическая характеристика работы, данные о поднятых проблемах, указываются её основные достоинства и недостатки.

MUSTAQILLIK MAYDONIDA

Mamlakatimizning bosh maydonida Mustaqillik monumenti o'rnatilgan. 2005 yilda uning oldida qo'liga go'dak tutgan baxtli ona haykali qurildi. Bu ikki monument me'moriy-badiiy majmua hosil qildi. U "Mustaqillik va ezgulik monumenti" deb nomlandi. Monument xalqimizning mehr-oqibati va tinchliksevarligi ramzi.

Mustaqillik maydonidagi Ezgulik arkasi 150 metrga cho'zilgan. Uning 16 ta ustuni oppoq marmardan ishlangan. Arkaning yuqori qismida ona-sayyoramiz atrofida aylanayotgan turnalar tasviri bor. Ko'kka intilayotgan qushlar yuksak parvoz, baxt va yoshlikni ifodalaydi. Ular go'yo xalqimizning ezgu ishlarini qo'llab-quvvatlaydi, mamlakatimizga omonlik tilaydi.

Arka bo'ylab biroz yursangiz, Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan hamyurtlarimizga bag'ishlangan Xotira maydonidan chiqasiz va "Motamsaro ona" monumentiga ko'zingiz tushadi. Bu salobatli haykal – 1941-1945 yillarda bo'lib o'tgan janglarda farzandlarini yo'qotgan onalarning umumiy timsoli. Ko'zlari g'amgin bu Ona xuddi "Dunyoda hech qachon urush bo'lmasin, bunga aslo yo'l qo'ymang", – deb iltijo qilayotgandek. Bu yerdagi ulkan "Xotira kitobi"ga o'sha urushning yuzlab qurbonlari ismi sharifi yozilgan.

Mustaqillik maydoni poytaxtimizning eng go'zal joylaridan biridir.

So'zlarni to'g'ri o'qing va yod oling

Lug'at

o'rnatmoq	—	установить	turna	—	журавль
go'dak	—	младенец	parvoz	—	полет
haykal	—	памятник	hamyurt	—	соотечественник
me'moriy	—	архитектурный	motamsaro	—	траурный
ezgulik	—	благородство	quvvatlamog	—	поддержать
oqibati	—	верный	salobatli	—	величественный
sayyora	—	планета	iltijo	—	просьба, мольба



Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilib yozing.

1. Он немного задумался над ответом.
2. Я приехал скорым поездом.
3. Мне однокурсники подарили серебряные часы.
4. Наши спортсмены тщательно готовятся к Олимпиаде.
5. Ахрор любит классическую музыку.
6. Моя старшая сестра работает директором школы.
7. В институтской библиотеке много книг узбекских авторов.
8. Наш край всегда славился своим гостеприимством.
9. Наталья и Андрей уехали отдыхать в горы.
10. Чтобы хорошо знать узбекский язык много читаю, пишу и перевожу.
11. На собрании высказали свои мнения Акрам, Хадича и Наргиза.
12. В нашем институте работают факультеты гимнастики и спортивной психологии, спортивных единоборств.
13. Самира ушла в магазин со своим братом Акмалем.
14. Ходить было трудно, так как шел дождь.

Gaplarni rus tiliga tarjima qiling

1. Institutimizda to'rt mingdan ortiq talaba o'qiydi. 2. Bu yil universitetga mingdan ziyod talabalar qabul qilindi. 3. Saida bilan Nozima derazalarni yuvishdi. 4. Biz maktab bog'iga terak nihollarini o'tqazdik. 5. Akam bu yil institutni bitiradi. 6. Shahodat shirin hayollarga berildi. 7. Tohir shu kuni uzoq yo'lga otlandi.

Taqrizni o'qing. Shu namuna asosida darsliklaringizdan biriga taqriz yozing.

**L.R.Ayrapetyans, A.A.Po'latov va Sh.X.Isroilovning
“Voleybol” o'quv-uslubiy qo'llanmasiga**

TAQRIZ

L.R.Ayrapetyans, A.A.Po'latov va Sh.X.Isroilov birgalikda yozgan “Voleybol” o'quv-uslubiy qo'llanmasi 1-bosqich talabalariga tavsiya etiladi. Shuningdek, undan o'qituvchi-murabbiylar, sport tashkilotchilari ham foydalanishlari mumkin.

Qo'llanma kirish va beshta bobdan iborat bo'lib, uning oxirida ilovalar, nazorat savollari ham berilgan.

Qo'llanmaning 1-bobida voleybol sport turining tarixi haqida ma'lumotlar taqdim etilgan va uning bugungi kundagi ahvoli yoritilgan.

2-bobda musobaqa qoidalarining shakllanishi va ulardagi o'zgarishlar haqida so'z boradi.

Qo'llanmaning 3 va 4-boblari o'yin texnikasi hamda taktikasiga oid materiallardan iborat. Boblar jadval va rasmlar bilan to'ldirilgan.

5-bobda voleybol bilan shug'ullanishni istagan kishilarga o'yin harakatlarini dastlabki o'rgatish uslubiyati ochib berilgan.

Qollanma juda oddiy, tushunarli tilda yozilgan. Shug'ullanuvchilar undan foydalanib, voleybol o'ynashni mustaqil o'rganishlari ham mumkin.

Suhbatni o'qing va sherigingiz bilan gaplashing.

- Sizning sevimli mashg'ulotingiz bormi?

- Ha, men kitob o'qishni yoqtiraman.

- Qanday kitoblarni o'qiysiz?

- Men she'riyatni, ayniqsa, zamonaviy she'rlarni xush ko'raman.

Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini hech qo'ldan qo'ymayman.

- Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" asarini o'qiganmisiz?

- O'qiganman. Kuchli asar. Unda shoir aytmoqchi bo'lgan fikr zo'r. Odamlarga yomonlik qilmaslik, faqat yaxshilik qilish –ajoyib odatlar. Lekin chin inson bo'lish uchun bu hali kam, deydi shoir.

- Ha, boshqalarni ham yomonlik qilishdan qaytarish kerak. Adolat-sizlikni ko'rganda indamay turish qo'rqqoqning ishi, deyiladi asarda.

- Siz-chi? Zamonaviy shoirlardan kimlarni sevib o'qiysiz?

- Marhum Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyidlarni sevib o'qiyman.

Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

- 1. Institutimizda to'rt mingdan ortiq talaba o'qiydi.**
- 2. Bu yil universitetga mingdan ziyod talabalar qabul qilindi.**
- 3. Saida bilan Nozima derazalarni yuvishdi.**
- 4. Biz maktab bog'iga terak nihollarini o'tqazdik.**
- 5. Akam bu yil institutni bitiradi.**
- 6. Shahodat shirin hayollarga berildi.**
- 7. Tohir shu kuni uzoq yo'lga otlandi.**

Taqrizni o'qing. Shu namuna asosida darsliklaringizdan biriga taqriz yozing.

L.R.Ayrapetyans, A.A.Po'latov va Sh.X.Isroilovning

“Voleybol” o'quv-uslubiy qo'llanmasiga

TAQRIZ

- L.R.Ayrapetyans, A.A.Po'latov va Sh.X.Isroilov birgalikda yozgan “Voleybol” o'quv-uslubiy qo'llanmasi 1-bosqich talabalariga tavsiya etiladi. Shuningdek, undan o'qituvchi-murabbiylar, sport tashkilotchilari ham foydalanishlari mumkin.
- Qo'llanma kirish va beshta bobdan iborat bo'lib, uning oxirida ilovalar, nazorat savollari ham berilgan.
- Qo'llanmaning 1-bobida voleybol sport turining tarixi haqida ma'lumotlar taqdim etilgan va uning bugungi kundagi ahvoli yoritilgan.
- 2-bobda musobaqa qoidalarining shakllanishi va ulardagi o'zgarishlar haqida so'z boradi.
- Qo'llanmaning 3 va 4-boblari o'yin texnikasi hamda taktikasiga oid materiallardan iborat. Boblar jadval va rasmlar bilan to'ldirilgan.
- 5-bobda voleybol bilan shug'ullanishni istagan kishilarga o'yin harakatlarini dastlabki o'rgatish uslubiyati ochib berilgan.
- Qollanma juda oddiy, tushunarli tilda yozilgan. Shug'ullanuvchilar undan foydalanib, voleybol o'ynashni mustaqil o'rganishlari ham mumkin.

Suhbatni o'qing va sherigingiz bilan gaplashing.

- - Sizning sevimli mashg'ulotingiz bormi?
- - Ha, men kitob o'qishni yoqtiraman.
- - Qanday kitoblarni o'qiysiz?
- - Men she'riyatni, ayniqsa, zamonaviy she'rlarni xush ko'raman. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini hech qo'ldan qo'ymayman.
- - Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" asarini o'qiganmisiz?
- - O'qiganman. Kuchli asar. Unda shoir aytmoqchi bo'lgan fikr zo'r. Odamlarga yomonlik qilmaslik, faqat yaxshilik qilish – ajoyib odatlar. Lekin chin inson bo'lish uchun bu hali kam, deydi shoir.
- - Ha, boshqalarni ham yomonlik qilishdan qaytarish kerak. Adolatsizlikni ko'rganda indamay turish qo'rqqoqning ishi, deyiladi asarda.
- - Siz-chi? Zamonaviy shoirlardan kimlarni sevib o'qiysiz?
- - Marhum Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyidlarni sevib o'qiyman.

NAZORAT SAVOLLARI

- 1. Reja nima? U nima uchun tuziladi?
- 2. Rejalar qanday turlarga bo'linadi?
- 3. Taqriz nima?
- 4. Taqrizda qanday ma'lumotlar beriladi?
- 5. Mamlakatimizning bosh maydonida qanday monument o'rnatilgan?
- 6. Ezgulik arkasini tasvirlab bering.
- 7. Ko'kka intilayotgan qushlar nimani ifodalaydi?
- 8. Xotira maydonida qanday monument bor?
- 9. Motamsaro ona qanday iltijo qilayotganga o'xshaydi?
- 10. Qanday ishlarga taqriz yoziladi?

MAVZU BO'YICHA TESTLAR

- **1. Reja nima?**
- A. Matn mazmunining eng qisqa bayoni.
- B. Ilmiy ishning tahlili.
- C. Ilmiy ishning kirish qismi.
- D. Ilmiy ishning xulosa qismi.
- **2. Taqriz nima?**
- A. Matn mazmunining eng qisqa bayoni.
- B. Ilmiy ishning kirish qismi.
- C. Ilmiy ishning tahlili.
- D. Ilmiy ishning xulosa qismi.
- **3. Taqrizda qanday ma'lumotlar beriladi?**
- A. Ishda ko'tarilgan muammolar, ishning yutuq va kamchiliklari.
- B. Ish mualliflarining tarjimai holi.
- C. Ilmiy ishning kirish qismi.
- D. Ilmiy ishning xulosa qismi.
- **4. Mamlakatimizning bosh maydonida qanday monument o'rnatilgan?**

- **5. Ezgulik arkasidagi ko'kka intilayotgan qushlar nimani ifodalaydi?**
- A. xalqlar do'stligini
- B. mustaqillik va erkinlikni
- C. tinchlik va xotirjamlikni
- D. yuksak parvoz, baxt va yoshlikni
- **6. Xotira maydonida qanday monument bor?**
- A. Ibn Sino monumenti
- B. "Motamsaro ona" monumenti
- C. "Jasorat" monumenti
- D. "Mustaqillik va ezgulik monumenti"
- **7. Rejalar qanday turlarga bo'linadi?**
- A. bosh va uzil-kesil rejalar
- B. asosiy va yordamchi rejalar
- C. sodda va murakkab rejalar
- D. birinchi va ikkinchi darajali rejalar
- **8. Motamsaro ona monument kimlarning umumiy timsoli?**
- A. 1941-1945 yillarda bo'lib o'tgan janglarda farzandlarini yo'qotgan Onalarning
- B. Birinchi Jahon urushida farzandlarini yo'qotgan Onalarning

GLOSSARIY

oʻrnatmoq	—	установить	turna	—	журавль
goʻdak	—	младенец	parvoz	—	полет
haykal	—	памятник	hamyurt	—	соотечественник
meʻmoriy	—	архитектурный	motamsaro	—	траурный
ezgulik	—	благородство	quvvatlamoq	—	поддержать
oqibati	—	верный	salobatli	—	величественный
sayyora	—	планета	iltijo	—	просьба, мольба

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. O'zbekiston NMIU, 2017. 48 b.
2. Muhiddinova X. S., Salisheva Z. I., Po'latova X. S. O'zbek tili. Oliy ta'lim muassasalari rus guruhleri uchun darslik. T. O'qituvchi. 2012 yil.
3. Ahmedova H. O'zbek tili. Rus guruhleri uchun o'quv qo'llanmasi. T. Yangi nashr. 2010 yil.
4. Shodmonov E., Rafiyev A., G'oyipov O'zbek tili. Darslik. Toshkent.: O'zbekiston, 1994.
5. Radjapov B.S., Ayxodjayeva M.S., Xusnutdinova T,N. O'zbek tili. Jismoniy tarbiya instituti 1-kurs talabalari uchun o'quv qo'llanmasi.O'zDJTI, 1994 yil.
6. Айходжаева М.С., Ахмедова Х.О. Русско-узбекский тематический словарь спортивных терминов. I и II части. Т., 2010 yil.
7. **Интернет сайтлари:**